

INSON SALOMATLIGIGA EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH.

Artikova Umidaxon Sodirjonovna

O'zbekiston respublikasi

Qarshi davlat texnika universiteti Ekologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson salomatligiga ekologik omillarning ta'siri tahlil qilinadi. Hozirgi vaqtda tabiiy muhitning ifloslanish muammosi, aholi va hududlarning ekologik havfsizlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik muammolar butun dunyo miqyosida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va iqlim o'zgarishi insoniyat hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: Ekologiya, atrof-muhit, ekologik inqiroz, nozogeografik, ekologik muammolar, ekzogen omillar, aholi salomatligi, ekologik havfsizlik, nozoekologiya, ichimlik suvi, havo, tuproq, yuqumli kasalliklar.

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА.

Артикова Умидаксон Содиржоновна

Республика Узбекистан

**Преподаватель кафедры экологии Каршского государственного
технического университета**

Аннотация: В данной статье анализируется влияние экологических факторов на здоровье человека. В настоящее время проблемы загрязнения окружающей среды, а также вопросы экологической безопасности населения и территорий приобретают особую актуальность. Экологические проблемы рассматриваются как одни из наиболее значимых на глобальном уровне. Загрязнение окружающей среды, истощение природных ресурсов и изменение климата оказывают непосредственное воздействие на жизнь и здоровье человечества.

Ключевые слова. Экология, окружающая среда, экологический кризис, нозогеографический, экологические проблемы, экзогенные факторы, здоровье населения, экологическая безопасность, нозоэкология, питьевая вода, воздух, почва, инфекционные заболевания.

EVALUATION OF THE IMPACT OF ECOLOGICAL FACTORS ON HUMAN HEALTH.

Artikova Umidaxon Sodirjonovna

Republic of Uzbekistan

Teacher, Department of Ecology, Karshi State Technical University

Abstract: This article analyzes the impact of environmental factors on human health. Currently, the issues of environmental pollution and ecological safety of populations and territories have become highly relevant. Environmental problems are considered among the most pressing global challenges. Environmental pollution, depletion of natural resources, and climate change directly affect human life and health.

Keywords: Ecology, environment, ecological crisis, nosogeographic, environmental problems, exogenous factors, public health, environmental safety, nozoecology, drinking water, air, soil, infectious diseases.

Kirish. Hozirgi vaqtda tabiiy muhitning ifloslanish muammosi, aholi va hududlarning ekologik havfsizlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan asrning 70-yillarida ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va aholi sonining tez o'sishi natijasida atrof-muhitga salbiy ta'sir keskinlashdi, jahon hamjamiyati ekologik muammolarning globallashuvi va planetar miqyosda ekologik tahdidning kuchayishiga duch keldi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, barcha kasalliklarning 24 foizi, aholi o'limining 23 foizi bartaraf etish mumkin bo'lgan atrof-muhit ta'siri oqibatida sodir bo'lmoqda. Dunyo bo'yicha salbiy ekzogen omillar har yili o'rtacha 13 milliondan ortiq aholining hayotdan ko'z yumushiga va besh yoshdan kichik

bo'lgan bolalarning har uchtdan bittasini kasallikka chalinishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo miqyosida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va iqlim o'zgarishi insoniyat hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning o'zgarib borishi aholi salomatligi sohasida yangi qonuniyatlarni keltirib chiqarmoqda. Olimlarning tadqiqotlari ko'rsatishicha, ekologik inqiroz munosabatlarining hozirgi yo'nalishi, eng avvalo, ekologik omillar bilan tavsiflanadi. Shu sababdan aholi yashash sharoitini maqbullashtirish va uni tabiiy muhitning salbiy ta'siridan himoyalashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'paymoqda. Keyingi o'n yillikda aholi salomatligining barqarorlashuvi va uning qator ko'rsatkichlarini yaxshilashga, atrof-muhit zo'riqishining kamayishiga erishilgan bo'lsada, aholining to'liq ekologik xavfsizligini ta'minlash, xususan kasalliklar tarkibini, ularning hududiy xususiyatlarini o'rganish, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy geografik omillarni aniqlashga yo'naltirilgan ustivor vazifalarni belgilash masalalari kam tadqiq qilingan.

Inson salomatligiga ekologik omillar ta'sirini baholashning vazifalari:

- tibbiyot geografiyasi va uning bo'g'ini bo'lgan nozoekologiyani ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish;
- obyektning tibbiy-geografik sharoitining hududiy tafovutlarini aholi salomatligi nuqtai nazaridan tahlil qilish va baholash;
- ekologik inqiroz sharoitida yangi, majmualari nozogeografik yondashuvning zarurligi va maqsadga muvofiqligini asoslash;
- aholi yashab turgan joylarda salbiy mintaqaviy omillar – atmosfera havosi, qishloq hududlarining tuproq, ichimlik suvi va ozuqa mahsulotlarining ifloslanishini tahlil qilish;
- mintaqada keng tarqalgan kasalliklarni mavzuli xaritalarda aks ettirish;
- mintaqaning barqaror rivojlantirish boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish, aholi yashash muhitini maqbullashtirish maqsadida tashkiliy,

ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tibbiy-ekologik, profilaktika tizimlarini o'zaro muvofiqlashtirish va boshqalar.

Noqulay ekologik sharoitda, tibbiy geografik masalalar majmualari tadqiq qilish, mintaqalar nozogeografik vaziyatini sog'lomlashtirish bo'yicha aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqish kerak. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi nozogeografik omillarni (ichimlik suvi, havo, tuproq va ozuqa mahsulotlari sifatining buzilishi) aniqlash va tahlil qilish; aholi kasalliklari va atrof-muhit zararli omillarining o'zaro korrelyatsion aloqadorligi aniqlash; mintaqaning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uning nozogeografik vaziyatiga ta'sirini o'rganib chiqish; atrof-muhit va ijtimoiy-gigienik vaziyatni har tomonlama monitoringini amalga oshirish;

Misol uchun: Orol dengizining qurishi Quyi Amudaryo mintaqasi aholisining salomatligiga o'zining katta salbiy ta'sirini tekkizganligini ko'rishimiz mumkin. Agar Quyi Amudaryo mintaqasida cho'llashishning, tuproq degradatsiyasi, sho'rlanishining, suv havzalarining maydonlarining kamayishining oldini olmasak, bu yerlardan ko'tarilayotgan qumli-tuzli chang, kuchli sho'rlangan ichimlik suvi mahalliy aholi salomatligiga o'zining salbiy ta'sirini tekkizishda davom etadi.

Ochiq suv havzalarida suvning ifloslanishi. O'zbekiston gigienistlari va sotsiologlari aholi salomatligiga ta'sir etuvchi antropogen omillar orasida, "Suv omili" dominant deb hisoblashadi. Amudaryo deltasining ichimlik suvi ifloslandi, chunki uning tarkibi inson faoliyati to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir ostida o'zgardi va ko'pincha standartlarga javob bermaydi. Shu bilan birga ichimlik suvi organoleptik xususiyatlarini o'zgartiradi, inson salomatligi uchun zararli bo'lgan moddalar paydo bo'ldi.

Xulosa. Inson salomatligi uzviy jihatdan ekologik omillar bilan bog'liqdir. Tegishli davlat, ilmiy va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan atrof-muhit holatini

monitoring qilishni yo'lga qo'yish; ekologiya va aholi salomatligi muammolarini hal etish bo'yicha atrof-muhitni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash tizimi o'rtasidagi integratsiyani takomillashtirish lozim. Ekologik tushunchalarni shakllantirishda Abu Ali ibn Sino asarlarining ahamiyati katta. Alloma tomonidan yaratilgan asarlarning 80 dan ortig'i tabiat va insonning unga bo'lgan munosabati masalasiga bag'ishlangan. Tashqi muhitning odamlar tanasiga ko'rsatadigan ta'siri, ular sog'ligini saqlash, parhez, shaxsiy gigiena to'g'risidagi fikrlar alloma tomonidan yaratilgan "Tib qonunlari" asarining bosh g'oyalari sanaladi. Allomaning inson tanasida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, yer va havoda mo'tadillikning buzilishi bilan bog'liqligi, yashash joylarining torligi, ozoda bo'lmasligi, yuqumli kasalliklarning tez tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishi, yuqumli kasalliklarning aholi zich joylashgan joylarda havo va boshqa omillar orqali yuqishiga doir o'gitlari bugungi kunda ham muhim ijtimoiy-tibbiy ahamiyatga egadir. Mutaфakkirning "Agar havoda chang va g'ubor bo'lmaganida edi, inson ming yil umr ko'rgan bo'lar edi" degan mashhur iborasi hali hamon aktualligicha qolmoqda.

Olimning fikricha, inson tabiatdan moddiy hayot manbalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki ruhiy va jismoniy quvvat ham oladi. Shuningdek, u ayrim kasalliklarni davolashda tabiiy manbalar, xususan, qum, tuproq, suv va o'simliklardan foydalanish zarurligini uqtirib, zarur tavsiyalar beradi. Bugungi kunda ekologik inqirozning oldini olishda aholining, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiyasi, madaniyati va ma'naviyati hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qarori.

2. I. R. Turdimambetov Qoraqalpog'iston respublikasi nozogeografik vaziyatini yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiya ishi. Toshkent - 2016
3. Xayrullaev M.M. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001. - 406 b.